

## ТА'ЛИМ ТИЗИМИДА МУСТАҚИЛ ИШЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ

*Chirchiq shahar kasb – hunar maktabi  
Ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi  
Amonova Shaxnoza Abdialumovna  
Sirojova Nasiba Eshniyozovna  
Rus tili o`qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola ona tili va adabiyot faninig bugungi kunda dolzarb bo'lgan o'quvchilarning mustaqil ishlarini elektron ta'lim orqali tashkil etish usullari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining va dasturiy vositalarning mustaqil ishlarni bajarishdagi o'rni va ahamiyati haqida muhim ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Mustaqil ta'lim, ijodiy fikrlash, loyihalashtirilgan, elektron ta'lim resurslari, didaktik maqsadi

O'quvchilarning mustaqil faoliyatini amalga oshirish jamiyatda faol ishtirok eta oladigan mutaxassislarni tayyorlash uchun muhim shartlardan biridir. Mustaqil ta'limning muammosi nazariy tayyorgarlik davrida o'quvchilarning darsdan tashqari mustaqil ishlashi hajmi va tuzilmasini tahlil qilishni o'z ichiga oladi hamda mustaqil ta'limni samarali tashkil etish o'quv jarayonini jadallashtirishga va o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlari, bilimlarini rivojlantirishga yordam beradi. Ta'lim tizimida mustaqil bilim olish, nazorat qilish mustaqil ta'lim olishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Mustaqil bilim olishda avvalo, o'quvchilarda mustaqil ishlashga, erkin, ijodiy faoliyat yuritishga va eng asosiysi mustaqil fikrlashga ehtiyojni shakllantirish lozim. Umuman olganda, fanning o'quv-uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlanishi, o'quv jarayoniga raqamli ta'lim resurslarini joriy etish alohida o'quv ta'limini rivojlantirishga, o'quvchilarni mustaqil yo'naltirishga imkoniyat yaratadi va oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayonlarida o'quvchilar mustaqil ta'limining ulushini oshirish zarur.

Mustaqil ishni tashkil qilish asosan ikki maqsadni ko'zda tutadi: -bo'lajak mutaxassislarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun o'quvchilarni o'z ustida mustaqil ishlashga o'rgatish; - o'quvchilarga mustaqil ta'lim olish yo'li bilan bilim olishga o'rgatish, masalan, o'qituvchi rahbarligida o'quvchining o'z ustida ishlashini tashkil etish. O'quvchilarning mustaqil ishlashini tashkil qilishda o'qituvchining asosiy vazifasi mustaqil ish samaradorligini ta'minlash, maslahat, amaliy yordam berish va mustaqil ta'lim natijasini nazorat qilishdan iboratdir. Mustaqil ta'lim ikki ko'rinishda bo'lishi mumkin:

- o'qituvchi tomonidan avvaldan loyihalashtirilgan ishlarni, ma'lum ko'rsatmalar asosida o'quvchilar tomonidan o'qituvchining qisman nazorati asosida bajariladigan mustaqil ish; - o'quvchining o'z qiziqishi va istak-hohishi asosida o'z tomonidan rejalashtirilgan va o'z bilimini oshirishga qaratilgan mustaqil ish. Ikkinchi holda o'quvchidagi ichki motivatsiya mustaqil ta'limning o'z-o'zini nazorat qilish orqali oldinga qo'yilgan maqsadga erishishni nazorat qiladi. Shuning uchun har bir fan o'qituvchisi o'quvchilarga mustaqil izlanish yo'llarini o'rgatishi, bu izlanishdan

o'quvchining mamnun bo'lishi, mustaqil ishlash uchun ko'proq imkoniyat yaratish, bilim olishga qiziqishini oshirishga harakat qilishi zarur. Texnika, texnologiya va ishlab chiqarishning jadal sur'atlar bilan rivojlanib o'quvchi yoshlarga texnika va texnologiyalarning yangi yutuqlarini o'zlashtirish ko'nikmalarini hosil qilish uchun ularni o'qitish usullarini tubdan yangi pog'onaga ko'tarish zarurati davr talabi bo'lib qolmoqda. Bu muhim vazifani hal etishda kundalik turmushda tezkorlikda kirib kelayotgan zamonaviy pedagogik va axborot — kommunikatsion texnologiyalar, elektron ta'lim resurslaridan keng foydalanish muhim rol o'ynashi muqarrardir. Hozirgi kunda sinovdan o'tgan maxsus axborot vositalari: kompyuter texnikalari, audio va video vositalari qatoriga kelib qo'shilgan elektron ta'lim resurslari, virtual stendlar, animatsiyali dasturlar vositasida dars mashg'ulotlarini olib borish o'quvchilar tomonidan dars mashg'ulotlarini o'zlashtirishlariga samarali natijalar berib borishi tayindir. Elektron ta'lim resurslari yordamida darslarni tashkil etish jarayoni, bunda o'quvchilarning olayotgan bilimlarini nafaqat eshitish, balki ko'rish sezgilari orqali ham qabul qilishlari va tushunchalarning g'oya va mazmunini chuqur anglab etishlariga samarali yordam beradi. Qator mualliflar tomonidan turli elektron o'qitish vositalari yordamida mavzularning yoritilishni joriy etib borilayotganligi, bunda o'quvchilarning bilim saviyalarining oshib borayotganligini bevosita ishonch hosil qilish mumkinki, bu usullarning yanada takomillashtirilishi, yuqori pog'onaga olib chiqish kabi zaruratlar oldindan ko'rib, shu yo'sinda ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etish har bir rahbar hamda pedagogning dolzab vazifasi bo'lishi talab etiladi.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalarini amalga oshirish sharoitida o'quvchi har qanday o'quv fanini muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan quyidagi umumio'quv ko'nikma va malakalarga ega bo'lish kerak: ma'lumot bilan mustaqil ishlash: asosiy holatlarni aniq, chizmaviy va izchillikda konspekt ko'rinishida qayd etish; o'quv topshiriq va vazifalarni yechish uchun zarur bo'lgan axborotlarni topishi, tanishi, tushunishi, tanqidiy baholashi, uni yig'ish va referat, hisobot, belgilarda, shuningdek grafikli tashkil etuvchilar ko'rinishida taqdim etish; berilgan talablarga muvofiqlikda o'zining shaxsiy ilmiy matnini yaratish; axborot izlash, yig'ish, qayta ishlash va saqlash uchun zamonaviy kompyuter va axborot texnologiyalarini qo'llashning amaliy malakalari. Mustaqil ta'lim — o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish, murakkablik darajasi turlicha bo'lgan topshiriqlar, amaliy vazifalarni auditoriyada hamda auditoriyadan tashqarida ijodiy va mustaqil bajarish asosida nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyatdir. Mustaqil ishlar didaktik maqsadi, vazifasi, murakkablik darajasi, kimga (individual yoki jamoa uchun) mo'ljallanganligiga qarab, bir-biridan farq qiladi. Mustaqil ta'lim jarayonida tanlangan mavzularning ilmiyligi, tizimliliigi hamda o'quv materiallarining qiziqarliligi, amaliyot bilan bog'liqligi, fanlararo aloqadorligi, shuningdek beriladigan mustaqil ishlar va topshiriqlarning ijodiy xarakterga egaligi muhimdir

O'quvchilarning faol mustaqil ishi faqat jiddiy va mustahkam asoslargagina tayanadi. Eng kuchli asoslovchi omil - bu keyingi samarali kasbiy faoliyatga tayyorgarlikdir. Yaxshi tayyorgarlikka ega bo'lgan iqtidorli o'quvchilar ijodiy va izlanish xususiyatiga ega bo'lgan murakkab topshiriqlarni bajaradilar. Kamroq tayyorgarlikka ega bo'lgan o'quvchilar, soddaroq topshiriqlarni bajaradilar, biroq

shunga qaramay, topshiriqlar ustida ishlash ularga umumiy masalani hal etishda guruh bilan birga ishlashga imkon beradi. O'quvchilarning mustaqil ta'lim olishlarini muvaffaqiyatli tashkil etish uchun fanni o'rganishda uslubiy qo'llanmalar zarur bo'ladi. Uslubiy qo'llanmalarda ishning batafsil algoritmi, muammoli bahslar uchun mavzular, mustaqil o'rganish uchun adabiyotlar, topshiriqlar, kompyuter test va taqdimotlarni bajarish bo'yicha maslahatlar, o'z-o'zini nazorat qilish uchun savol va testlar keltirilgan nazariy material, amaliy vazifalar, glossariy va h.k.lardan iborat bo'lishi kerak. O'quvchilarga o'quv fanini mustaqil faoliyatda o'rganish va bilimlar sifatini doimiy o'zi tekshirishini tashkillashtirishda yordam berish uchun mo'ljallangan. O'quvchini o'quv mashg'ulotiga mustaqil tayyorlanishida va o'quv jarayoni vaqtida uning mustaqil faoliyatini tashkiliy-didaktik ta'minlash vazifasini bajaradi. O'quv yutuqlarini doimiy o'zi nazorat qilishini ta'minlaydi. Malakali mutaxassislar tayyorlashning muhim omillaridan biri - bu ta'lim sifati va samaradorligini oshirishdir. Ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda o'qitishning zamonaviy usullari, shakl va vositalari, o'yin texnologiyalari, muammoli o'qitish, xususan, mustaqil ta'limning noan'anaviy metodlari ham muhim o'rin egallaydi. O'quvchilar mustaqil ishini tashkil etishda o'quvchining akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanishi mumkin: - fanning ayrim mavzularini o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, o'quv manbalari bilan ishlash; - seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rib borish;

- belgilangan mavzular bo'yicha ishlanmalar tayyorlash;
- testlar yechish; - amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish bo'yicha keyslar yechish;
- munozarali savollar va topshiriqlarga tayyorgarlik ko'rish;
- ko'rgazmali vositalar tayyorlash;
- axborot resurs markazida belgilangan mavzular bo'yicha nazariy, amaliy va statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va muayyan tizimga solish; - belgilangan mavzular bo'yicha zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida taqdimot materiallari tayyorlash; - kutubxona, zamonaviy axborot texnologiyalar markazi imkoniyatlaridan foydalanilgan holda mustaqil o'qish jarayonlarida ishtirok etish;

O'quvchilarni o'z ustida mustaqil ishlashga o'rgatish hozirgi kunning asosiy vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Buning uchun o'quvchining ijodiy qobiliyatini uyg'otish va auditoriyada olgan bilimni yanada chuqurlashtirish uchun qo'shimcha ishlash ko'nikmasini shakllantirish zarur. Mustaqil ishlash ehtiyoji har bir shaxs uchun qo'shimcha ishlash ko'nikmasini shakllantirish zarur. Mustaqil ta'limni tashkil qilish bilan bog'liq metodik ishlanma va ko'rsatmalar tuzish, hamda mustaqil ta'lim samaradorligini oshirish har bir fan o'qituvchilari oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Mustaqil ishni tashkil qilish asosan ikki maqsadni ko'zda tutadi: - bo'lajak mutaxassislarining ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun o'quvchilarni o'z ustida mustaqil ishlashga o'rgatish; - o'quvchilarga mustaqil ta'lim olish yo'li bilan bilim olishga o'rgatish, masalan, o'qituvchi rahbarligida o'quvchining o'z ustida ishlashini tashkil etish. O'quvchilarning mustaqil ishlashini tashkil qilishda o'qituvchining vazifasi mustaqil ish samaradorligini ta'minlash, maslahat, amaliy

yordam berish va mustaqil ta'lim natijasini nazorat qilishdan iboratdir. Mustaqil ta'lim ikki ko'rinishda bo'lishi mumkin:

- o'qituvchi tomonidan avvaldan loyihalashtirilgan ishlarni, ma'lum ko'rsatmalar asosida o'quvchilar tomonidan o'qituvchining qisman nazorati asosida bajariladigan mustaqil ish; - o'quvchining o'z qiziqishi va istak-hohishi asosida o'z tomonidan rejalashtirilgan va o'z bilimini oshirishga qaratilgan mustaqil ish. Ikkinchi holda o'quvchidagi ichki motivatsiya mustaqil ta'limning o'z-o'zini nazorat qilish orqali oldinga qo'yilgan maqsadga erishishni nazorat qiladi. Har bir fan o'qituvchisi o'quvchilarga mustaqil izlanish yo'llarini o'rgatishi, bu izlanishdan o'quvchining mamnun bo'lishi, mustaqil ishlash uchun ko'proq imkoniyat yaratish, bilim olishga qiziqishini oshirishga harakat qilishi zarur. Xulosa qilib aytganda mustaqil ishlar o'quvchini mustaqil fikrlashga, kerakli ma'lumotlarni mustaqil qidirib, berilgan masala va topshiriqlarni mustaqil yechimini topishga, o'z ustida ishlashga ko'maklashadi, bilim saviyasini oshirishga yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. R.R. Xusainov “Oliy ta’limda fanlarni o’qitish sifatini oshirishda mustaqil ta’limning roli”.
2. Otamirzayev O.U. Zokirova D.N “Методические рекомендации по организации самостоятельной работы студентов”.
3. Usmonov M. “Интерактив электрон o’quv kurslar — o’qitish faoliyatining yangi vositasi sifatida”
4. Хамидов Ё. Ё. “Та’лим samaradorligini oshirishda elektron ta’lim resurslarining o’rni”
5. Листенгартен В.С. “Самостоятельная деятельность студентов” 4-oktabr Turkiston milliy ozodlik harakati faollari ommaviy qirg’in qilingan sana.